

ATIRGUL GULBARGINING TIBBIYOTDAGI AHAMIYAT

Turatov Shuxrat Xudoyberdi O'g'li

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash ishi fakulteti 106-
guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: **Kiyamova Dilfuza Sharifovna***

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrasasi.

Ishning maqsadi: *Atirgul gulbargining shifobaxsh xususiyatlaridan inson organizmidagi ba'zi kasalliklarni va alomatlarni davolashdagi ahamiyatini o'rganish.*

Muammoning dolzarbligi: *Barcha hovli va ba'zi ko'p qavatli uylarda ham atirgul uchraydi. U gullagandan so'ng bir oyda to'kilib ketadi. Uning bekorga to'kilib ketishining o'rniga uni gulbarglaridan unumli foydalangan holda undan shifobaxsh murabbo, sharbatini va quritilgan atirgul gulbarglarini tayyorlashni, qo'llashni o'rganishimiz kerak. Shunda oddiy uy sharoitida oson davolanish mumkin.*

Tadqiqot natijalari: Tekshiruv ishlarining sezilarli qismi uy sharoitida oson davolanishga asoslangan. Atirgul gulbargining antosiyaninlar (glikozidlar, masalan, sianidinlar, pelargonidinlar va peonidinlar), flavonollar (shu jumladan, kempferol va quersitin hosilalari), flavan-3-ollar, terpenoidlar, karotinoidlar va boshqa biologik faol birikmalarning yuqori miqdori bilan ajralib turadi. Bundan tashqari makro va mikroelementlari mavjud. Shularni bilgan holda atirgul gulbargidan uy sharoitida foydalanib davolanish mumkin.

Atirgul gulbarglarini yuvib, tozalab steril idishga solinadi va ustidan qaynagan suv quyiladi. Idish og'zi yopilib 12 soat dimlab qo'yiladi. So'ng o'rta olovda 15 daqiqa qaynatiladi. Quyuqlashish holati kuzatilishi mumkin, lekin xavotirlanmaslik kerak. Chunki uni sovigandan keyin kichik elakchadan o'tkaziladi. Unga birga-bir qilib glitserin qo'shiladi. Qancha gulbargdan foydalanish o'zingizni xohishingizga bog'liq. Tayyor bo'lgan atirgul sharbati yoki suvi surtilganda ajinga qarshi, yuzni taranglashtiradi, quruqshagan yuzni silliqlashtiradi, yurak o'ynashi, ko'ngil aynishini butkul qoldiradi. Atirgul va uzum sharbati qaynatilib, milklarga surtilsa ularning mustahkamligi oshadi. Quloq og'rig'ida ham foydalidir. Uning gulbarglarini qaynatib, suvini siqib tashlamasdan shishlarga surtilsa uni qaytaradi.

Atirgul murabbosini tayyorlash uchun atirgul gulbarglari terib olib yuviladi. Gazga idishni qo'yib, bir kosa suv quyamiz, unga suvga qarab bir kosa shakar yoki 3-5 osh qoshiq asal solinib eritiladi. Erigach 5-6 hovuch atirgul

gulbarglarini solamiz va yaxshilab aralashtirilib, qaynatiladi. Shu tarzda murabbo tayyor bo'ladi. Uni istagancha iste'mol qilish mumkin, chunki u mutlaqo zararsiz mahsulot. Bu murabbo ichakni shlak va zaharli moddalardan tozalaydi. Oshqozon og'rig'idan halos qiladi. Ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Bosh og'rishi va aylanishini yaxshilaydi, immunitetni ko'taradi. Oftob urishi, darmonsizlik, surunkali va o'tkir yo'talga shifo.

Bulardan tashqari, atirgul gulbarglarini quritib, undan yostiq tayyorlansa va unda uxlanadigan bo'lsa, undan taraladigan xushbo'y ifor asabni tinchlantirish xususiyatiga ega.

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki atirgulning gulbarglarini bekorga to'kilib ketishi o'rniga, undan inson immunitetini mustahkamlashda foydalanish orqali odamlar salomatligini saqlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1: <https://www.hindawi.com/journals/jfq/2017/7941347/>

2: <https://www.diyetz.com/uz/gul-cayinin-faydalari/>

3.Kholmurodova D., Kiyamova D. Study of the process of producing fuel briquettes from industrial waste //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 10. – С. 238-243.

4. Киямова Д. Ш., Холмурадова Д. К. Разработка научно-методических принципов и технологии получения угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-8 (97). – С. 56-58.

5.Киямова Д. Ш., Аскарров К. А., Холмурадова Д. К. Исследование влияния наполнителей на физико-механические свойства угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-2. – С. 49-51.